



**FARG'ONA VILOYATI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR BOSHQARMASI  
BUYRUG'I**

2025-yil “ 27 ” 06 № 48 -son

Farg'ona shahar

**Kasbiy ta'lim tashkilotlarida 2025/2026 o'quv yili uchun qabul jarayonlarini  
tashkil etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilishchora-tadbirlari to'g'risida» 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020-yil 11-noyabrdagi 715-son qarori va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 25-iyundagi 240-son buyrug'i ijrosini ta'minlash hamda kasbiy ta'lim tashkilotlariga 2025/2026 o'quv yili qabul jarayonlarini tashkil etish maqsadida

**BUYURAMAN**

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 25-iyundagi 240-son buyrug'i asos va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2025/2026 o'quv yili uchun kasbiy ta'lim tashkilotlariga (keyingi o'rinlarda-texnikumlar) abituriyentlarni qabul qilish quyidagi imtihon shakllarida:

a) Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlariga (keyingi o'rinlarda – tibbiyot texnikumlari) o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlariga **kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha** o'qishga qabul qilishda kirish imtihonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-81-son Farmoniga asosan **“avval test, so'ng tanlov”** tamoyiliga muvofiq o'tkazilishi;

Bunda tibbiyot texnikumlariga abituriyentlarni qabul qilish **“avval test, so'ng tanlov”** tamoyili asosida to'plagan ballaridan kelib chiqib quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

asosiy fanlar blokini **biologiya** va **kimyo** yoki **kimyo** va **biologiya** etib tanlagan abituriyentlar jami to'plagan ballari bo'yicha;

asosiy fanlar blokida **biologiya** yoki **kimyo** fanlari bo'lmagan abituriyentlar majburiy fanlar (ona-tili, matematika, O'zbekiston tarixi) bloki bo'yicha to'plagan ballari asosida tibbiyot texnikumlari va ulardagi mutaxassisliklarni tanlashi mumkin.

**b)** texnikumlarga (tibbiyot texnikumlarining kunduzgi ta'lim shakli bundan mustasno) kamida umumiy o'rta ma'lumot negizida boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha (kunduzgi, kechki va dual ta'lim shakllariga)abituriyentlarning hujjatlarini qabul qilish Vazirlikning **"my.edu.uz"** platformasi orqali **2025-yilning 10-avgustdan 10-sentabrga qadar (shu kuni ham)** amalga oshiriladi.

Bunda abituriyentlarni texnikumlarning **kunduzgi va kechki ta'lim** shakllariga kirish imtihonlari belgilangan tartibda yozma imtihon shaklida tashkil etiladi.

3. Abituriyentlarning **"avval test, so'ng tanlov"** tamoyiliga muvofiq to'plagan ballari bilan Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlarining tanlash imkoniyati bo'lgan mutaxassisliklar ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq texnikumlarga **dual ta'lim shaklida** abituriyentlarni qabul qilish ish beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar asosida **to'g'ridan-to'g'ri** amalga oshirilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi mas'ullari va texnikum direktorlari:

2025/2026 o'quv yili uchun texnikumlarga qabul qilish jarayonlari hamda belgilangan imtihon shakllari bo'yicha abituriyentlarni xabardor qilish yuzasidan zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqsin;

har bir texnikum tomonidan 2025/2026 o'quv yili uchun o'qishga qabul qilish bo'yicha e'lonlar va targ'ibot materiallarini tayyorlanishini va bitiruvchilarga yetkazilishini ta'minlasin;

umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari uchun boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kunduzgi va dual ta'lim shakllariga abituriyentlarni 2025-yilning **1-iyuldan 20-iyulga (shu kuni ham)** qadar Vazirlikning **"my.edu.uz"** platformasi orqali qabul qilinishini nazorat qilsin;

**uch kun muddatda** texnikum direktorlari ishtirokida qabul jarayonlarini tashkil etish tartib qoidalari bo'yicha onlayn seminar tashkil etsin;

texnikumlarga qabul jarayonlarini muvofiqlashtirish va hududlar bo'yicha zaruriy ma'lumotlarni umumlashtirib borsin;


abituriyentlarni texnikumlarga 2025/2026 o'quv yili uchun qabul qilish jarayonlari bo'yicha yangiliklarni ommaviy axborot vositalarida yoritish ishlarini tashkil etsin.

6. Qabul komissiyasi faoliyatini davlat qonunchiligi to'liq amal qilinishi va turli xil salbiy holatlarni oldini olishga shaxsan ta'lim muassasasi direktori mas'ul ekanligi belgilab qo'yilsin.

7. Devonxona mudiri (M.Mamajonova)ga ushbu buyruqni o'rnatilgan tartibda joylarga yetkazilishi ta'minlansin.

8. Mazkur buyruqning ijro nazoratini boshqarma sho'ba mudirlar (A.Qambarov va S.Otajonov)ga yuklatilsin.

**Boshqarma boshlig'i**



**T.Boymatov**